

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MIRATIV IFODAGA EGA

GAPLARNING TURLARI

Aliyeva Zebo Akram qizi

SamDChTI tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada mirativ ifodaga ega gaplarning ma'no va mazmun turlari, yasalish usullari, o'xshashliklari va farqlari ingliz va o'zbek tillari misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Mirativ shakl, taajjub, his-hayajon, admirativ, punktuatsiya.

Gaplarni kontekstdan kelib chiqib his-hayajon bilan to'g'ri intonatsiyada o'qish, gapga mirativlik ma'nosini yuklaydi.

a. 'Look who has come?' (so'roq ma'nosи)

b. 'Look who has come!' (his-hayajon, mirativlik ma'nosи)

Yuqoridagi ikki gap bir xil tarkibdan iborat ikki xil mazmunga ega. Birinchi gap "qaraginchi kimdir keldimikan?" ma'nosida savol tarzida berilgan bo'lsa, ikkinchi gap esa kelgan kishining kutilmaganligidan taajjub ma'nosida his-hayajon bilan aytilayotgan mirativ mazmun kasb etadi. Og'zaki nutqda his-hayajon mazmunidagi mirativlik hodisasi mavjud gaplarni aniqlash qiyin emas, chunki urg'u hamda intonatsiya gap mazmunini anglash imkoniyatini beradi. Biroq yozma nutqda na urg'uni na ohangni ko'rsata olish mumkin. Bunday holatda tilshunoslikning punktuatsiya bo'limi yordamga keladi.

Masalan: Jasur has gone abroad.

Jasur has gone abroad?

Jasur has gone abroad!

Mazkur uchta bir xil so'zlardan tuzilgan bir xil gaplarning ma'no-mazmunini ularning tinish belgilari yordamida ajratishimiz mumkin. Demak, birinchi gap tinglovchiga xabar beradi, ya'ni darak gap. Ikkinci gapda esa Jasurning chet elga ketgan yoki ketmaganligini aniqlashtirish maqsad qilingan. Uchinchi gapda esa Jasurning chet elga ketganligiga so'zlovchining munosabatini ko'rishimiz mumkin. Lekin kontekstdan tashqari holatda so'zlovchining kayfiyatini aniqlash biroz qiyin bo'lishi mumkin. Chunki taajjublanish, hayratlanish, g'azab ma'nolarini o'quvchi to'liq kontekstdan sezib olishi mumkin. Shuningdek, emotiv ma'no yuklaydigan



emotsional so'zlarning ongda idrok etilishi kontekstdan kelib chiqib turlicha mazmun ifodalashi mumkin.

Masalan: Oh, bunchalar go'zal!

Oh, oyog'im og'ridi!

Yuqorida berilgan gaplarda “oh” emotsional undov so’zining vazifasi birinchi gapda go’zallikdan hayratlanish ma’nosda mirativlik hodisasini ifodalayabdi, ikkinchi gapda esa tanadagi og’riqni ifodalash uchun ishlatilgan.

O’zbek tilida taajjub-hayrat ifodalari unli tovushlarni so’zda bir martadan ortiq qo’llash yordamida hissiy bo’yoqdorlik oshirilib gapga mirativ ma’no yuklashi mumkin.

Masalan: -*Voyposha-a-a-a!* Nima qilib qo’ydingiz tamom bo’psiz-ku! Oyim talmovsirab, goh meng, goh Hoji buviga qarar edi. –Oyog’ingizdan ajralib qolibsiz-ku! –dedi Hoji buvi boshini chayqab. (O’tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 19-bet). Keltirilgan namunada, *Voyposha-a-a-a!* so’zida bir necha bor ishlatilgan “a” unlisi gapning emotsional kuchli o’qilishini hamda undan keyin keladigan fikrlarning hissiy bo’yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshdan o’tkazgan hayotiy tajribalar haqida gap ketganda inferensial evidensiallik yoki hayotiy tajribalar haqida so’zlovchi kutilmagan hayrat bilan gapirsa mirativlik hodisasi bilan ifodalanadi.

Masalan: Shuni angladikki, muhabbat o’z ortida dard bilan keladi!

‘We came to know that love actually leaves only pain behind!

Ingliz tilidagi komplement (xushomad) gap turi his-hayajon gap hisoblanib, mirativ ifodaga ega bo’lishi mumkin.

Masalan: “My friends were surprised saying “What talents you apparently have!”

Shuningdek, o’zbek tilida ham qobiliyatga nisbatan qo’llaniladigan komplement turi ham mirativlik hodisasiga misol bo’la oladi. Bunda so’zlovchi biror kishi haqida o’zi kutmagan qobiliyat yoki harakatning guvohi bo’lganiga urg’u beradi.

Masalan: “ Bir ayol qo’shnisiga aytayabdi: -Maydonchada o’ynayotgan bolalar orasida Boltavoyingizni ko’rdim. *Naq generalning o’zi-ya!* Hammaga buyruq beradi:”Sen u yoqqa tur, sen bu yoqqa chiq.....” bola bechoralar ham indamay qulq solishadi. –Mening *Boltavoyim-a?* Mening bolam mo’min qobil. Uyda churq etgan ovozi chiqmaydi. Birovga buyruq beradiganlardanmas u.” (Tohir Malik. Alvido, bolalik)

Evidensiallik kategoriyasi doirasida mirativlikdan tashqari admirativlik (admirative) atamasi qo'llanilishiga guvohi bo'lamiz. Admirativlik odatda ajablanish va hayratni ifodalasa ham, ba'zida kinoya, shubha, xabardor qilish ma'nolarida ham ishlatiladi. Bunda so'zlovchi berilgan voqeа-hodisaga nisbatan biroz ishonqiramaslikka ishora qiladi. Kinoya va shubhalanishda so'zlovchi odatda o'tmishda bo'lган voqeа hodisaga munosabat bildirsa, hayratlanish-ajablanishda esa nutq jarayonidagi holat hisoblanadi.

Masalan: When there is a hurricane raging outside and someone remarks “What a lovely weather we are having!”

Mazkur ingliz tilidagi namunada so'zlovchi tashqarida bo'layotgan daxshatli ob-havoga nisbatan “Qanday ajoyib havo!” deb teskari ma'noda kinoya ishlatyabdi. O'zbek tilida ham kinoya nafaqat teskari ma'noda fik bildirish, balki mirativ ma'no yuklash uchun ham ishlatiladi. Masalan, o'qituvchi anchadan beri darslarga kelmayotgan o'quvchisini ko'rib, hayrat bilan: “Iye, janobi oliylari kelibdilar-da!” deyishi mumkin. Bu holatda so'zlovchi o'tmishda oliv tabaqa vakillari uchun foydalilaniladigan “janobi oliylari” so'zi yordamida kesatiq ma'nosi bilan emotsiyonal bo'yoqdorlikni oshiryabdi.

Nahot o'tgan umr butkul havoyi

Nahot ko'rghanlarin barchasi sarob.

Nahot yetmish to'rt yil sig'ingan joyi

Manfur manzil bo'lsa, jirkanch va xarob.

Mazkur Abdulla Oripov qalamiga mansub sovet mustamlakasi haqida yozilgan “Fojia” she'rida shubha, gumon, taajjub ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladigan “nahot” yuklamasi mavjud. “Nahot” yuklamasining takror qo'llanilishi she'rga emotsiyonal urg'u berib, “yetmish to'rt yil” sovet mustamlakasida o'tkazgan umriga shubha bilan qaralyotganini ifodalayabdi. Mazkur sherda qo'llanilgan anafora ya'ni “nahot” yuklamasining misra boshida takror qo'llanilishi yordamida shoir hayrat darajasini oshirib, mirativ ifoda shakllantirgan.